Жамият ва инновациялар –
Общество и инновации –
Society and innovations
Journal home page:
https://inscience.uz/index.php/socinov/index



# The history of the study of Yoz I culture of Central Asia

**Alisher SHAYDULLAEV[1], Abror Uralov[2]**

Temiz State University, National Center of Archeology

**ARTICLE INFO**

***Article history:***
Received October 2023
Received in revised form
15 November 2023
Accepted 25 November 2023
Available online
15 January 2024

***Keywords:***
Bactria,
Sogd,
Choch,
Fergana Valley,
Margiana,
Parthia,
Early Iron Age,
Yoz I,
Kuchuk I,
Bandikhon I,
Burgulyuk,
Koktepa I.

**ABSTRACT**

Over the past 60 years, large-scale archeological research has been conducted on the monuments of the early Iron Age of Central Asia. Archaeological monuments in various regions of Central Asia on the origin, material culture and chronology of local cultures such as Yoz I, Tilla I, Bandikhon I (Maydatepa), Qiziltepa (Kyzil I) and Kuchuk I, Chirakchi, Koktepa I, Burganli and Chust the database has expanded significantly.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.
DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss10/S-pp8-24
This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

# O‘rta Osiyo Yoz I madaniyatining o‘rganilish tarixi

***Kalit so‘zlar:***
Baqtriya,
So‘g‘d,
Choch,
Farg‘ona vodiysi,
Marg‘iyona,
Parfiya,
ilk temir davri,
Yoz I,
Kuchuk I,
Bandixon I,
Burganli va Ko‘ktepa.

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada o‘tgan 60 yil mobaynida O‘rta Osiyoning ilk temir davri yodgorliklarida olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik izlanishlar haqida ma’lumotlar berilgan.

[1] PhD, Temiz State University.
[2] PhD student, National Center of Archeology.

# История изучения культуры Ез I Средней Азии

***Ключевые слова:***
Бактрия,
Согд,
Чоч,
Ферганская долина,
Маргиана,
Парфия,
Ранний железный век,
Ёз I,
Кучук I,
Бандихон I,
Бургулюк,
Коктепа I.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлена информация о масштабных археологических исследованиях, проведенных на памятниках раннего железного века Центральной Азии за последние 60 лет.

**Baqtriya**

Baqtriyaning ilk temir davri arxeologiya yodgorliklarini tadqiq etish oʻtgan asrning 60-yillarida boshlangan. Dastlab, L.I.Albaum boshchiligida ekspeditsiya Kuchuktepa yodgorligini aniqladi. U Kuchuktepa quyi qatlamlarini soʻnggi jez davri mil. avv. II ming yillik oxiri va IX-VII asrlar bilan davrlashtiradi[2, C. 69-70].

Keyinchalik A.A.Asqarov va L.I.Albaum Kuchuktepada izlanishlar olib borishi natijasida Kuchuk I qatlamlari soʻnggi jez davriga, mil. avv. XI asr oxiridan V asrgacha toʻgʻri kelishini yozadi[4, C. 72]. A.A.Sagdullayev bunday holda, bir davrni ajratib koʻrsatish uchun ikki xil atama – soʻnggi jez va ilk temir davri qoʻllanilishini yozadi[43, C. 230]. A.A.Asqarov va L.I.Albaumlarning yozishicha, ilk temir davri mil. avv. VII-V asrlarning oʻrtalariga toʻgʻri keladi[4, C. 18, 84]. Shuningdek, Kuchuk I madaniyatining kelib chiqishini A.A.Asqarov va L.I.Albaum Soʻgʻddagi Sarazm madaniyati aholisi Oʻrta Osiyo janubiga koʻchishi haqida taxmin bildiradi[4, C.72].

1984-yilda Sh.B.Shaydullaevning Kuchuktepa yogorligining halqa devorlaridan tashqarida keng qamrovli stratigrafik tadqiqotlari amalga oshirdi. Natijada, 26 ta madaniy qatlamni aniqladi. Kulolchilik buyumlarini Kuchuk IA va IB fazalariga ajratilib oʻrgandi[73].

1970-1971-yillarda Oʻzbekiston sanʼatshunoslik ekspeditsiyasi Surxondaryo viloyati Shoʻrchi tuman markazidan 9 km shimoli-gʻarbda joylashgan soʻnggi jez va ilk temir davri yodgorliklarini aniqlaydi[38].

1973-1974-yillarda Oʻzbekiston sanʼatshunoslik ekspeditsiya E.V.Rtveladze boshchiligida dala-qidiruv tadqiqotlari jarayonida ilk temir davriga oid yangi yodgorliklar – Bandixon I (Maydatepa) va Bandixontepa II yodgorliklarini aniqlaydi va arxeologiya qazishmalarini amalga oshiradi[40, C. 93]. E.V.Rtveladze Bandixon I kulolchilik majmuasini mil. avv. II ming yillik oxiri I ming yillik boshlari bilan davrlashtirilgan Margʻiyona va Baqtriyaning Yoztepa, Tillatepa, Kuchuktepa, Mirshodi yaqinidagi Nomsiztepa sopollariga juda oʻxshash ekanligini aniqladi[40, C. 96]. Bandixon I ning quyi qatlamlarida Namozgoh VI dan Yoz I davriga oʻtish qayd etilgan boʻlishi mumkin, deb yozadi[49,C. 34]. A.Sagdullayev yodgorlikni dastlab mil. avv. XI-VIII asrlarga oid deb hisoblaydi[47, C. 93]. Ushbu xronologiyani yodgorlikning ichki stratigrafiyasi asosida va sinxron yodgorliklar (Tillatepa va Kuchuktepa) analoglari bilan belgilaganligini yozadi[49, C. 34].

1974-yilda E.V.Rtveladze Poshxurd qishlogʻining shimoliy chekkasida Dobilsoyning chap qirgʻogʻida Dobilqoʻrgʻon yodgorligini tekshiradi[41, C. 76]. Dobilqoʻrgon yodgorligining quyi qatlamlaridan ilk temir davrining sopollari topilgan[73, C. 11].

1978-yilda Kuchuk I, Bandixon I, Boʻyrachi I (yuqori qatlam)[44, C. 4], Buyrachi II, Nomsiztepa va Qiziltepa quyi qatlamlari bilan bir qatorda Jarqoʻton yuqori qatlamlarida[3, C. 17, 19] ilk temir davriga oid qoʻlda yasalgan sopollar aniqlandi[49, C. 35].

1971-yilning kuzida Oʻzbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi Surxondaryo viloyati Shoʻrchi tumanidagi Mirshodi qishlogʻida joylashgan Qiziltepa yodgorligida arxeologiya tadqiqotlarini olib bordi[8]. 1973-1974-yillarda Qiziltepada qazishma ishlari A.S.Sagdullayev va Z.Xakimovlar tomonidan olib borildi[53, C. 25]. Natijada, Qiziltepaning quyi madaniy qatlamidan Yoz I davriga oʻxshash qoʻlda yasalgan kulolchilik namunalarini aniqlandi. Qiziltepaning yodgorligining ushbu qatlamlar xronologiyasi mil. avv. IX-VII asrlarga toʻgʻri keladi[53, C. 29].

Keyingi tadqiqotlarda 1978-yilda A.A.Sagdullayev Qiziltepani koʻp qatlamli yodgorlik ekanligini aytib, uni mil. avv. X-V asrlarda faoliyat yuritganini yozadi[44. C. 13].

1987-yilda Qiziltepa hududida Qizilcha deb nomlangan oʻndan ortiq kichik yodgorliklar joylashgani va bu yirik markaz dehqonchilik tumanini tashkil etganini yozadi[52. C. 6]. Dastlab, Qizilcha 6 ni funksional tuzilishiga koʻra, ilk temir davriga oid uy-joy sifatida koʻrib chiqqan edi[44].

1980-yilda A.A.Sagdullayev yana bir mulk – Qizilcha 1 da qazishma ishlari olib borib, u yerda Qizilcha 6 ga oʻxshash arxeologiya materiallar olindi[52, C. 7].

1974-yilda Boʻyrachitepa I ning turli qismlarida toʻrtta stratigrafik shurf qazilgan, ularda qalinligi 0,4-1,2 m boʻlgan madaniy qatlam aniqlandi. Boʻyrachi sopollari Mullali yodgorligi va qabriston idishlariga oʻxshaydi. Yuqori qatlamida ilk temir davriga oid qoʻlda yasalgan sopol buyumlari aniqlandi[44, C. 32].

1976-yilda A.A.Asqarov tomonidan Jarqoʻtonda olib borilgan qazishmalar chogʻida asosan ilk temir davriga oid idishlar boʻlgan chuqurdan oʻn bir kishining bosh suyagi va boshqa suyaklar (noaniq) topilgan. A.A.Asqarov bosh suyaklari yomon saqlanganligini qayd etdi. Kulolchilik buyumlarini Oʻrta Osiyoning Yoz I tipidagi kulolchiliklari bilan qiyoslab uning davrini mil. avv. XI-X asrlar bilan belgilaydi[3, C.17,19].

1995-yilda Sh.B.Shaydullayev yodgorlikni qazish jarayonida yuqori qatlamda diametri 1,2-2,3 m boʻlgan uchta chiqindi oʻralarini aniqladi, oʻralarning konturlari va devorlari aniq belgilangan, ular dastlabki madaniy qatlamlarni kesib oʻtgan. Ular qalinligi 0,6-0,7m boʻlgan kul yashil rangdagi boʻshashgan madaniy qatlamlar bilan toʻldirilgan boʻlib, koʻp miqdorda qoʻlda yasalib naqshlangan sopollar bilan birgalikda kulolchilik charxida yasalgan sopol parchalari aniqlandi[73].

2007-2013-yillarda Oʻzbekiston-Fransiya qoʻshma arxeologiya ekspeditsiyasi (MAFOuz-oldtarix, doktor X. Bendezu-Sarmiento va S. Mustafoqulov) tomonidan Jarqoʻton yodgorligida topilgan kashfiyotlar ilk temir davrining dafn marosimlarini yangicha yoritib berdi[86, PP. 357-372 ].

1983-yilda A.S.Sagdullayev Oʻrta Osiyoning ilk temir davri kulolchilik namunalari xronologiyasini belgilovchi omil emasligini yozadi. Bunga asos qilib bir biridan ancha uzoq boʻlgan Burganli, Tillatepa, Qayroqqum va Chiroqchitepa majmualarida oʻxshashliklar uchrashini yozdi[51, C. 7].

1989-yilda A.S.Sagdullayev Yoz I tipidagi majmualar genezisi muammosini oʻrganib, ularda Yoz I kulolchiligining "shimoliy" genetik yoʻnalishi dehqonchilik va chorvachilik madaniyati sintezi haqida yozadi[50, C. 53].

2005-yilning bahorida Boysun arxeologiya ekspeditsiyasi Germaniya Arxeologiya instituti (DAI) va Oʻzbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi Bandixon yodgorliklarini oʻrganishni qayta yoʻlga qoʻydi. L.M.Sverchkov va N.Boroffkalar Bandixon yodgorliklarida Bandixon I (Maydatepa) va Bandixon II (Bektepa) hamda bir qancha yodgorliklarda tadqiqot ishlari olib bordi[62, C. 50, 60].

Bandixon I dagi izlanishlar natijasida 13 ta qatlamni aniqladi va 6 ta bosqichga ajratdi. Ushbu I-V bosqichlar Yoz I va VI bosqich Yoz II davriga toʻgʻri keldi. Keyingi davrda hayot Bandixon II ga koʻchishini aniqladi. Tadqiqotlarida Bandixon I (Maydatepa) yoshini radiouglerod C14 usuli bilan mil. avv. 1400-1100 yil deb belgiladi[61,C. 52].

2010-yil Qiziltepada arxeologiya tadqiqotlari qayta tiklandi. Qiziltepa madaniy ahamiyatini inobatga olgan holda, Nyu-York universitetining "Qadimgi dunyoni oʻrganish instituti" (ISAW) tashabbusi va San'atshunoslik instituti bilan qoʻshma loyiha amalga oshirildi. Bunda asosan stratigrafik qazishmalar olib borish bilan birgalikda 1970-yildagi qazishmalar qayta ochildi. 2010-2011-yilda L. M. Sverchkov, Vu Sin va N. Boroffkalar Qiziltepa qal'a qismida stratigrafik qazishmalar olib borildi. Natijada, quyi qatlamda Yoz I tipidagi kulolchilik namunalari aniqlandi[63, C. 32, 74 ].

2002-2006-yillarda Oʻzbekiston-Chexiya arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan Jondavlattepa yodgorligida muntazam arxeologiya tekshirish ishlari olib borildi. Ushbu qazishmalar tufayli butun yodgorlikni qatlamlarini aniqlash imkoni boʻldi. Uning xronologiyasi Yoz I davridan to Sosoniylargacha belgilandi[77, P. 123-142].

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston-Chexiya arxeologiya ekspeditsiyasi shimoliy Baqtriya hududning Poshxurd-Zarabogʻ botigʻida Yoz I davriga oid 9 ta qishloq tipidagi yodgorliklar aniqladi[74, C. 99-102].

2015-2018-yillar davomida Yoz I davriga oid Burguttepa (Kayrit III) yodgorligida Oʻzbekiston-Chexiya-Fransiya xalqaro arxeologiya ekspeditsiyasi planigrafik va stratigrafik tadqiqot ishlarini olib bordi. Stratigrafik qazishma asosida yodgorlikning qoʻlda yasalgan naqshli kulolchiligi Yoz I davriga oid ekanligi aniqlandi. Shundan soʻng keng planigrafik qazishma ishlari olib borildi[89, P. 86-111].

2015-yilda J.Lhuillier Yoz I davriga oid Kayrit VI (Kayrittepa) va Burguttepa qazishmalarida aniqlangan sopollarni tarkibi, pishirilishini tipologiyasini tadqiq etadi[83, P. 112-121].

2015-yilda A.S.Sagdullayev va A.Sh.Shaydullayev fikricha, Yoz I madaniyatining paydo boʻlishi faqat Baqtriya arxeologiyasi bilan bogʻlab oʻrganmasdan, uni Oʻrta Osiyo hududi doirasidagi muammo sifatida oʻrganish kerak[48,C. 44-52].

2016-2017-yilda Oʻzbekiston-Chexiya xalqaro arxeologiya ekspeditsiyasi Maydon va Gʻoz qishloqlarida dala qidiruv ishlarini olib bordi. Natijada, Yoz I davriga oid Gazaqoʻton yodgorligi aniqlandi[79, P. 139-159].

Gazaqoʻton yodgorlikda 2017-yilda geomagnit tadqiqotlari oʻtkazildi. Natijada, yodgorlik toshdan qurilgan mudofaa devoriga ega ekanligi qayd etildi. Yodgorlik tosh devor bilan oʻrab olingan ekanligi, undan tashqari qalin madaniy qatlam mavjudligi aniqlandi[74, b, 113].

2018-yilda A.Sh.Shaydullayev va J.E.Togʻayevlar Shimoliy Baqtriya ilk temir davri dehqonchilik vohalarini joylashuvi boʻyicha mulohazalarini bildirdi[88, P. 89-91].

2016-2018-yillar mobaynida Kayrit yodgorligida rejali qazishmalar olib borildi. Natijada, yodgorlik Yoz I davriga oidligi, ikkita qurilish davri davomida faoliyat etganligi, tosh devor bilan oʻrab olingan, qishloq tipidagi manzilgoh ekanligi aniqlandi[74, b. 112].

2018-2019-yillarda Oʻzbekiston-Fransiya xalqaro arxeologiya ekspeditsiyasi davomida Burgutepa va Kayrittepa qazishmalari olib borildi[72, b. 352-360].

Shimoliy Afgʻonistonda ilk temir davriga oid, arxeologiya jihatdan toʻliq oʻrganilgan Tillatepa yodgorligi boʻlib, dastlab uning xronologiyasi mil. avv. I ming yillik boshlari bilan sanalgan. Keyinchalik, V.I.Sarianidi Tilla I mil. avv. 1300-1000-yillarga toʻgʻri kelishini yozadi[54].

J. Lhuillier ta'kidlashicha, 1969-1979-yillarda I.T.Kruglikova rahbarligidagi Sovet-Afgʻon ekspeditsiyasi tomonidan Shimoliy Afgʻonistonda olib borilgan ishlar ayniqsa, V. I. Sarianidi tomonidan olib borilgan qazishmalar bugungi kungacha Oʻrta Osiyodagi temir davri boʻyicha har qanday tadqiqotning asosi boʻlib qolmoqda. 1969-1979-yillarda Baqtriyaning janubida bir qancha yodgorliklarida izlanishlar olib borildi. Tillatepa janubiy Baqtriyaning birinchi aholi manzilgohi boʻlib, temir davrining butun Yoz ketma-ketligini aks ettiradi. Oʻsha yillarda Qutlugʻtepa, Oltin va Oltin-Dilyortepa yodgorliklarida arxeologiya qazishmalari olib borildi[81].

**Parfiya va Margʻiyona**

Turkmanistonda Sovet hokimiyatigacha boʻlgan davrda 1908-yilda E.Shmid Parfiyadagi Anau madaniyatini mil. avv. I ming yillik boshlarida inqirozga uchrashi "varvarlar istilosi davri" haqidagi va janubiy Oʻrta Osiyo dehqonchilik vohalariga shimoliy dasht chorvador qabilalarning kirib kelishi haqidagi taxminini ilgari surgan edi. Oʻrta Osiyo mintaqasida ilk marta Anau qatlamlaridagi arxeologiya izlanishlari vaqtida mil. avv. 1000-500-yillarga oid temir buyumlar aniqlandi[87, P. 157].

Janubiy Turkmanistonda koʻplab ilk temir davri yodgorliklari joylashgan boʻlib, birinchi arxeologiya tadqiqotlar 1930-yillarda boshlangan. 1946-yilda Janubiy Turkmaniston kompleks arxeologiya ekspeditsiyasi (YuTAKE) tashkil etilgandan soʻng Turkmanistonning barcha davr arxeologiya yodgorliklarini oʻrganish boshlandi.

1959-yilda V.M.Masson "Margʻiyonaning qadimgi dehqonchilik madaniyati" kitobini nashr etdi. 1954-1956-yillarda Oʻrta Osiyoda temir davri bilan atalgan Yoztepa qadimiy Margʻiyonada olib borilgan tadqiqotlar va qazishmalar natijasi edi[31].

V.M.Masson 1959-yilda Anau IV topilmalarning stratigrafiyasi noaniq ekanligini ta'kidlagan. V.M.Masson Anau IV ning quyi qatlamlarida aniqlangan oʻroq mil. avv. I ming yillikning boshlari bilan davrlashtiradi, chunki ushbu temir buyumlar bilan birga Yoz I tipidagi sopollar aniqlangan ekanligini yozadi va "varvarlar istilosi" nomini Anau IV A ga oʻzgartirishni taklif etgan[31, C. 106].

Janubiy Turkmanistondagi temir davri yodgorliklarini tadqiq etgan olimlar qatorida A.A.Marushchenko[30, C. 5-10] va V. I. Sarianidi[55] tilga olinadi. Ular Eski Marv, Dehiston, Yelkantepa, Yashillitepa, Ulugʻtepada arxeologiya qazishmalari olib bordi.

1959-yilda A.A.Marushenko Yelkantepada doimiy ravishda qazish ishlarini olib bordi. Uning soʻzlariga koʻra, mil. avv. II ming yillik oxirida bu hududni bosib olgan dasht chorvadorlar hukmdori istiqomat qiladigan joy boʻlgan[30, C. 56].

1970-yillarda G.Gutlyev Yassitepaning janubiy qismida qazishmalar boshladi. Natijada, Yoz I-Yoz III davrlari qatlamlari aniqlangan[12,C. 64-71].

Ulugʻtepa Namozgoh II oʻrtasidan to Yoz II davrigacha boʻlgan Oʻrta Osiyodagi eng uzun stratigrafiyalardan biriga ega. Shuning uchun Ulugʻtepa Oʻrta Osiyoning jez davri bilan bir qatorda temir davri ega boʻlgan noyob yodgorliklardan biridir. Ulugʻtepada

1960-yillarning oxirida V. Sarianidi bu yerda qazish ishlarini olib boradi. Qazishmalar 4 yil (1967-1970) davom etdi va yodgorlikning dastlabki xronologiyasi aniqlanadi[56, C. 342-343].

2001-yilda O. Lekomte, J. Bendezu-Sarmiento va M. Mamedov boshchiligidagi Fransiya-Turkmaniston arxeologiya ekspeditsiyasi Ulugʻtepada temir davri boʻyicha keng koʻlamli tadqiqotlarni boshladi[84, P. 352-372].

2011-yilda J.Bendezu-Sarmiento va J. Lhuillierlar yodgorlikning markaziy va shimoliy qismlarida qazishma ishlari olib borildi. Natijada, yodgorlik arxitekturasi va kulolchiligiga oid yangi maʼlumotlar olindi[80, P. 238-249].

1971-yilda E.E.Kuzmina bu masalani tahlil qilar ekan, Srubno-Andronovo qabilalar “Namozgoh VI ni yoʻq qilishda” qatnashgan boʻlishi mumkinligini va “varvarlar istilosi davrida” chorvachilik rolining ortishi hisobiga iqtisodiyotda oʻzgarishlar yuz berganligini taʼkidladi[25, C. 175].

1972-yilda E. E. Kuzmina Namozgah VI madaniyatining rivojlanishi “varvarlar istilosi” bilan toʻxtatilgan, bu davrda kulolchilik anʼanalari bir necha asrlar davomida yoʻqolgan[24, C. 145].

Eron-Turkmaniston chegarasidagi Kopettogʻ togʻlari etaklarida joylashgan Ulugʻtepa, Turkmaniston janubidagi eng yirik old tarix yodgorliklardan biridir. 2001-yildan buyon Fransuz-Turkman qoʻshma ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida buzilmagan xronologik ketma-ketlikka oid qatlamlar aniqlandi[90, P. 113-129].

“Varvarlar istilosi davri” madaniyat tashuvchilarining genetik markazi muammosiga toʻxtalar ekan, E. E. Kuzmina uni Oʻrta Osiyoning shimoliy hududlarida izlashni taklif qildi[24,C. 138].

1982-yilda A. A. Sagdullayev Namozgoh VI arxeologiya materiallari ham soʻngi jez davriga tegishli, yaʼni bu holda xronologiya jihatidan keskin farq qiluvchi ikki madaniyat – Nomozgoh VI va Yoz I bir vaqtning oʻzida bogʻlangan. Terminologiya chalkashliklarga yoʻl qoʻymaslik uchun bu ikki xil tarixiy davrni farqlash kerak[43, C. 232].

1984-yilda V. I. Sarianidi Togolok vohasidagi Togolok I manzilgohini aniqlaydi, u yerdagi qazishmalar paytida Yoz I davriga oid kulolchilik buyumlari topiladi[57, C. 20-21].

Oʻz davrida V. M. Masson Oʻrta Osiyodagi temir davri xronologiyasi Margʻiyona janubidagi Yoztepa sopol buyumlariga asoslanib Yoz I mil. avv. 900-650-yillar, Yoz II mil. avv. 650-450-yillar va Yoz III mil. avv. 450-350 yillar bilan belgilaydi[31]. Ular mos ravishda ilk, oʻrta va soʻnggi temir davriga toʻgʻri keladi.

V. M. Masson Yoz I bosqichini mil. avv. X-VII asrlar bilan davrlashtirgan[31] boʻlsa, Yu. A. Zadneprovskiy mil. avv. VIII-VII asrlar bilan davrlashtirishni taklif qiladi[76].

Shuningdek, A. S. Sagdullayev ilk temir davri haqida maʼlumotlarni yanada toʻldirish uchun Yoztepa va Yelkantepada qoʻshimcha arxeologiya izlanishlari olib borish zarurligini yozdi[43, C. 232]. A. S. Sagdullayev Yoz I davrini taxminiy ravishda mil. avv. IX-VII asrlarga tegishli boʻlishi mumkinligini yozadi[24, C. 229].

2010-yilda L. Sverchkov Yoz I majmuasi Baqtriya va Margʻiyonadagi mutlaqo yot hodisa ekanligini yozadi. Bunda u shimoliy sharqiy dasht chorvadorlarga ishora qiladi. Taxminan mil. avv. II ming yillikning oʻrtalarida Tarim havzasi aholisining bir qismining gʻarbiy va janubi-gʻarbiy tomonga oqib chiqishi kuzatildi. Aftidan, Toshkent vohasining Burganli madaniyatining paydo boʻlishi ham shu jarayon bilan bogʻliq va umid qilamanki,

Bandixon misolida koʻrsatilganidek, Oʻrta Osiyoning janubida Yoz I majmuasining ilk yodgorliklar paydo boʻlgan [60, C. 188-189].

Ali A. Vahdati Orta Osiyoning janubuy qismida mil. avv. 1450/1300-yillarda ilk temir davrining paydo boʻlishi Shimoliy Xurosonning baland togʻli vodiylari va Kopettogʻning shimoliy boʻylab pasttekislik vohalarida qishloq tipidagi aholi manzilgohlari paydo boʻlishini yozadi[78.].

B. Lione Yoztepa bosqichlari V.M.Masson davridan beri radiokarbon sanalari tufayli sezilarli darajada qadimiylashtirilganligini yozadi (taxminan 500 yil)[85, P. 29].

**Soʻgʻd**

Janubiy Soʻgʻddagi Chiroqchi yodgorligi Chimqoʻrgʻon suv omborining janubiy qirgʻogʻida joylashgan. U kichik tepalik shaklida saqlanib qolgan, uning katta qismini suv ombor suvlari yuvgan. Dastlab, ushbu yodgorlik Arxeologiya instituti ilmiy xodimi S. K. Kabanov tomonidan dala arxeologiya qidiruvi vaqtida aniqlandi[16, C. 19].

Ushbu yodgorlikda arxeologiya qazishmalari 1972-yil aprel-may oylarida olib borildi. Yodgorlikda hammasi boʻlib 12 ta joyida qazishmalar oʻtqizildi. X. Duke Chiroqchi yodgorligi moddiy ashyolari asosan kulolchilik buyumlari va bir qancha tosh buyumlar bilan ifodalanishi bilan birgalikda, na ustida, na madaniy qatlamda metall ashyolar topilmaganini yozadi. Toshkent vohasi Burganli madaniyati kulolchilik buyumlari orasida Chiroqchi yodgorligi qoʻlda yasalgan naqshsiz sopol buyumlarida eng yaqin oʻxshashliklarni topadi[16, C. 24].

Shu bilan birga, Kuchuktepa yodgorligidagi yarimsharsimon kosalar maʼlum darajada Chiroqchinikiga oʻxshab ketadi va "Yoz I" majmuasidagi baʼzi xumchalar va chuqur kosalar bilan aynan bir xil. X. Dukega koʻra Chiroqchi yodgorligi moddiy ashyolari qoʻlda yasalib boʻyalgan sopollar soʻnggi jez va ilk temir davriga toʻgʻri keladi[16, C. 28].

A.Sagdullayev bu davrga oid Janubiy Soʻgʻddagi Chiroqchi arxeologiya materiali umuman Surxon havzasi majmualariga oʻxshashligini yozadi[51, C. 8].

1984-yilda M.X.Isamidinov va R.X.Sulaymonovlar tomonidan Janubiy Soʻgʻda Yerqoʻrgʻon yodgorligida stratigrafik qazishmalar amalga oshirildi. Natijada, Yerqoʻrgʻon yodgorligida ilk temir davri qatlamlari aniqlanib, uni Yerqoʻgʻon I deb nomladi. Yerqoʻrgʻonda 13-qazishning 26-24 qatlamlarida qoʻlda yasalgan sopol boʻlaklaridan iborat boʻlib, ularning baʼzilarida naqshlar mavjud. Ushbu qatlam sopollari yasalishi qoʻpol va jigarrang-pushti rangga ega. Odatdagi aralashma shamot, baʼzida ezilgan qum bor. Shuningdek, ushbu qatlamlarda kulolchilik charxida yasalgan sopol parchalarining yoʻqligi xarakterlidir[29, C. 160-161].

1990-yilda A.Raimqulov va M.X.Isamiddinovlar Janubiy Soʻgʻdagi Toʻrkoʻltepa yodgorligi quyi qatlamlarida ilk temir davri sopol parchalarini qayd etgan. Bu kulolchilik majmuasi ikkita xoʻjalik oʻrasida qayd etilgan, ular kul va yashil rangli organik moddalar bilan toʻldirilgan. Diagnostik xarakterdagi 30 ta parchadan 1 tasi charxda, qolganlari qoʻlda yasalib naqshlangan edi[39, C. 30-37].

Oʻzbekiston-Fransiya qoʻshma arxeologiya ekspeditsiyasi 1993-yildan boshlab Koʻktepa yodgorligida qazishma ishlari olib boradi[75, b. 14]. Koʻktepa yodgorligi Zarafshonning oʻng yuqori oqimidagi tepaliklarda joylashgan. Qoʻshma ekspeditsiyaga K. Rapen va M. X. Isamiddinovlar rahbarlik qiladi. Ilk temir davri qatlamlarida Yoz I tipidagi kulolchilik namunalari va yarimyertoʻla uy-joy qoldiqlari uchraydi[22, C. 118-131].

M. X. Isamiddinov Koʻktepa va Toʻrtkoʻltepa yodgorligi sopollarining foiz nisbati deyarli bir xil ekanligi aytadi. Koʻktepada 60 ta sopoldan 12 tasi naqshli, Toʻrkoʻltepada

esa 30 tadan 13 tasida naqshlar uchraydi. Toʻrkoʻltepa yodgorligi davriy xronologiyasi mil. avv. IX-VII asrlarga toʻgʻri keladi[23, C. 16-37].

2003-yilda Oʻzbekiston-Italiya xalqaro qoʻshma arxeologiya ekspeditsiyasi boshliqlari Xasanov va S.Mexendalilar Sangirtepada olib borilgan arxeologiya qazishmalarida 3-qazma oʻrtasida birinchi marta materikkacha (8,5 m) qazildi. Natijada, soʻngi 1 metrda qoʻlda yasalib boʻyalgan sopol parchalari aniqlandi. Tadqiqotchilar Sngir I davrini ham alohida ajratib koʻrsatadi. Sangirtepada olib borilgan arxeologiya ishlar jarayonida Kuchuktepa kulolchilik majmuasining har uch davri mil. avv. IX-VIII asrlardan V-IV asrlar kuzatilgan[71, C. 182].

Keyingi yillarda Sangirtepa uchun mil. avv. II ming yillik oxiridan V-IV asrlargacha boʻlgan davrni oʻz ichiga olgan yangi stratigrafik ustun ishlab chiqildi[70, C. 208-219].

Sangir I bosqichi. Materik ustidan va yertoʻlalarning madaniy qatlamlaridan Kuchuk - II va Koʻktepa - II davri sopol idishlarga xos majmua qoʻlga kiritildi. Atigi 1% idishlar tashqi tomonida oqish rangda mayda chiziqlar bilan bezatilgan. Radiokarbon tahlillarga koʻra, Sangir I qatlami 2982 BC±30 SVR (Gif 12277 / SacA 10176) sanasi aniqlandi[69].

Uzunqir I bosqichi devori materikda guvalaklardan (30-50x20-25x15-20 sm), asosida kengligi 560 sm, balandligi 160 sm qurilgan. Arxeolog olima O. N. Lushpenko tomonidan amalga oshirilgan qazishmalar davomida Uzunqir I bosqichiga oid qatlamlardan Kuchuk I (mil. avv. X-VIII asrlar)  davriga oid sopol idishlar majmuasi topib oʻrganilgan[27].

2005-yilda Oʻzbekiston-Italiya arxeologiya ekspeditsiyasi guruhi Jomni oʻrganishga kirishdi. Natijada, Jomda ilk marotaba qoʻlda yasalib naqsh berilgan sopol parchalari aniqlandi. Yodgorlikning qadimgi kulolchilik buyumlari Koʻktepa quyi qatlamlari bilan analogiya qilinadi. Yodgorlikni janubiy Soʻgʻdning boshqa bir Toʻrtkoʻltepa yodgorli bilan bir vaqtda hayot boshlanganligiga ishora qiladi[9, C. 79-84].

Podayotoqtepa I davriga tegishli madaniy qatlamlar 1, 3 va 6 – qazishmalarning quyi qatlamlaridan olindi. Bu ashyoviy dalillar oʻz tadqiqotlar natijasiga koʻra mil. avv. X-IX asrlarga oid, ular orasida Sangir I va Uzunqir I bosqichlariga xos sopol idishlar uchraydi[82, P. 357-372].

Koʻktepa shaharchasida 1994-2008-yillar M.X.Isamiddinov va K.Rapen rahbarligida Oʻzbekiston-Fransiya qoʻshma arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini olib bordi. Bu muddat ichida shaharning tuzilishi va umumiy tarixiy topografiyasi, stratigrafik davrlari yoki rivojlanish bosqichlari haqida qoʻshimcha maʼlumotlar qoʻlga kiritildi[69].

2006-yilda M.X.Isamiddinov, K.Rapenlar va N.I.Almazova Koʻktepa I davriga oid tosh qurollarini tipologiya va trassologiya jihatdan tadqiq etadi[23].

2012-yilda J.Lhuillier, M.Isamiddinov va K.Rapenlar aniq stratigrafik kontekstda topilgan kulolchilik toʻplamining tahlili dastlabki tipo-xronologiyani belgiladi[28, C. 57-66].

Koʻktepa I davrining birinchi bosqichida (Koʻktepa I a) sopol tarkibi qoʻpol loyli ochiq yoki yopiq idishlarni oʻz ichiga oladi. Ikkinchi bosqichda (Koʻktepa I) shakllar xilma-xil boʻlib, vertikal yoki konveks devorlari boʻlgan, tutqichli elementlar paydo boʻladi[84].

B. Lione 1993-yildan boshlab Koʻktepa materialini arxitektura, stratigrafiya va qatlamlarning tarixini aniqlash va har bir davrning majmualarini iloji boricha toʻliq va aniq tavsiflashga harakat qilib keladi[26, C. 213].

Ko'ktepa I yodgorligidan olingan radikarbon C14 sanalariga ko'ra, madaniyat Yoz I davridan birmuncha kechroq ekanligi oydinlashdi. Ko'ktepaning quyi qatlami davri mil. avv. XIV asrdan oldingi davrga bog'lash imkonini bermaydi[26].

**Choch**

Burganli madaniyatiga oid ilk moddiy ashyolar 1934-yilda G.V.Grigoriyev tomonidan Qovunchitepa manzilgohining quyi qatlamlarida olingan[11, C. 45]. Lekin, ashyolarni yangi madaniyatga oid ekanligini qayd etmagan. 1940-yilda Tuyabo'g'iz suv ombori qurilishida V.M.Molotov va A.I.Terenojkin Burganli qishlog'ining sharqida bu madaniyatga oid ashyolarni aniqlab yangi madaniyat sifatida fanga kiritadi[66, C. 30]. XIX asrning 70-yillarida Ohangaron daryosining o'rta oqimida Yu. F. Buryakov boshiligida maxsus ekspeditsiya Burganli soy atrofida Tuyabo'g'iz yodgorligida ish olib bordi.

1971-yilda V.I.Sprishevskiy Ohangaron daryosining chap qirg'og'ida arxeologiya qidiruv ishlarini olib borib Kindik II yodgorligini aniqlaydi. Yodgorlikdan ko'plab sopollar, jo'mrakli qozonlar, chapya parchalari shu jumladan, tosh qurollari yig'ib olingan[65, C. 53].

O'zRFA Arxeologiya institutining Yu. F. Buryakov Burganli arxeologiya jamoasi 1975, 1976, 1977 va 1981-yillarda Toshkentdan 30 km janubda, Tuyabo'g'iz suv omborining suv bosgan hududida so'nggi jez – ilk temir asri yodgorliklarida qazishma ishlarini davom ettirdi[1, C. 11]. Asosiy qazishma ishlar №1 va №12 yodgorliklarida amalga oshirilgan. Arxeologiya qazishmalar mobaynida Burganli madaniyatiga oid 17 ta turar joy qoldiqlari ochib o'rganildi[15].

Zamonaviy Toshkentning janubiy-g'arbida o'rin olgan Shoshtepa yodgorligining quyi qatlamidan ham Burganli madaniyatiga oid kulolchilik ashyolari aniqlangan[68, C. 49-50]. Shoshtepa Kavardan yodgorligi aniqlanishiga qadar Burganli madaniyatining Toshkent vohasidagi eng shimoliy yodgorligi hisoblangan.

